


▼ Bugunning gapi



Yoshlar bilan ishlashda
*ko'lamni keng, marrani baland
o'lishimiz shart*



Ko'ksaroy qarorgohida
Prezidentimiz Shavkat
Mirziyoyevning mamlakatimiz
yoshlari bilan muloqoti kelajak
avlod hayotida tom ma'noda yangi
sahifa ochadigan tarixiy uchrashuv
bo'ldi, desak yangilishmaymiz.

Uchrashuvda yoshlar bilan ish-lash natijadorligini yanada oshirish, ularga yanada keng imkoniyatlar yara-tish chora-tadbirlari muhokama qilindi, ularning takliflari eshitildi.

Ertamiz egalari uchun ko'zda tutilayotgan imkoniyat va imtiyozlar yoshlarimizga anachalar ulkan kuch va g'ayrat bag'ish-
sa, biz, quyi bo'g'inda shu masalalarga
s'ul bo'lgan har qanday darajadagi rahbar-
ning zimmasiga juda zalvorli mas'uliyat va
bgarlik yuklaydi.

Endi barcha tizimdagi rahbarlar yoshlarning baralla ovozini eshitishga majbur. Yoshlar

buyuk kelajagimizning asosiy bo'g'ini ekanligini tushunmagan rahbar bizning safimizda bo'lishga haqqi yo'q, dedilar davlatimiz rahbari.

Albatta, har qaysi davlat, har qaysi jamiyat o'zining erdagi ishtibolini sog'lom va barkamol avlod timsolida ko'radi. Jismonan barkamol, ma'an va yetuk, zamonaviy bilim va taraqqiyot yutuqlarini chuqur egallagan, irodasi mustahkam, salohiyatli avlodni voyaga yetkazayotgan mamlakatning erasi yugur¹, kelajagi nurafrashon bo'lishi aniq. Katta marallarni ko'zlab amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar jarayonini, ezuq maqsad va umidlirimiz ro'yobini mamlakatimiz aholisining asosiy qismini tashkil etuvchi yoshlarimiz ishtirokida tasavvur etib bo'lmaydi.

Zotan, hammamiz ham bu dunyoda farzandlarimiz deb, ularning baxt-saudati, iqboli deb yashaymiz va mehnat qilamiz.

Viloyat bo'ylab



VILOYAT
hududida-
gi «Navoiy»,
«Yalla ma»,
Dybek», «Far-
d-avto» chegara
harakatlanayot-
gibot tadbirlari
vandik jinoyati,
uning asoratlari
va jazo turlari
bo'yicha ma'-
fuzalar qilinib,
fuqarolar ogoh-
likka chaqirildi,
mavzuga oid
bukletlar tarqa-
tilidi.

VILOYAT hokimligida sportni rivojlantirish borasida o'tgan yil yakunlari va 2025-yil uchun belgilangan ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda sport federatsiyalari faoliyatini muvofiqlashtirish borasidagi yutuq va kamchiliklar tanqidiy ko'rib chiqilib, sport maktablari, to'garaklar va havaskorlik klublari bilan hamkorlikni tizimli yo'lga qo'yish zarurligi qayd etildi.



O'RTA CHIRCHIQ tu-
manidagi maktablarning
yuqori sinf o'quvchilari
o'rtasida «Siz ekologiyaga
oid qonunlarni bilasizmi?»
mavzusida ko'rik-tanlov
o'tkazildi. Unda yettita
jamoadan 56 nafar o'quv-
chi 4 ta shart bo'yicha
bellashishdi. Yakunda g'o-
lib jamoa va ishtirokchilar
diplom hamda erdolik sov-
g'alari bilan taqdirlandilar.



YANGIYO'L shahri-
ning «Fayzli» mahallasi
hududida aholi tashabbusi
bilan obodonlashtirish ish-
lari bajarildi. Ariq va zo-
vurlar texnikalar yordami-
da tozalanib, to'plangan
chiqindilar olib ketildi. Ko'p
qavatli uylarning yo'laklari
tartibga keltirildi.



OLMALIQDA

“Buzuk Ipak yo’li”

Olmaliq shah-
rining "Hilol" mahallasi
hududida 227 gektar yer
maydonida Xitoyning nufuzli
kompaniyasi bilan hamkorlikda
"Buyuk Ipak yo'li" maxsus sanoat
industrial texnoparki qurilishi
boshlandi. Bu haqda viloyat
hokimligi Axborot xizmati
xabar berdi.

texnoparkī quriladi



U yerda elektrotexnika, to'qimachilik, qurilish materiallari, farmatsevtika kabi yo'nalishlarda 100 ga yaqin korxona joylashtiriladi. Sanoat texnoparkida 12 ming nafardan ziyod yangi ish o'ri yaratilishi, yiliga o'rtacha 120 million dollar eksport, 80 million dollarlik import o'imini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish ko'zda tutilgan.

Loyiha qurilishi ikki bosqichda amalga oshiriladi. Joriy yilning yanvar oyidan hududdagi 13 gektar yer may-

donida 2 qavatli ko'rgazma markazi, 3 qavatli ofis, logistika markazi, kichik muzlatkich, transformator ishlab chiqarish binolarining qurilishi boshlangan.

Toshkent viloyati hokimi Zoyir Mirzayev mazkur manzilda bo'lib, hududda olib borilishi belgilangan ish-larni o'rgandi. Shuningdek, maxsus sanoat zonasining bosh rejasi bilan tanishib, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'liq ta'minlash bo'yicha topshiriqlar berdi.



Бу лаганда
Бобур
ош еган

Бобур Мирзо ош еган,
қўш қаватли лаган ҳозиргача
сақланиб келинади. Айтиш-
ларича, лаган ёнғоқ дарахтидан
қўш қават қилиб ишланган бўлиб,
ўзига хос хусусиятга эга. Яъни, юқори
қаватига сузилган ош узоқ вақт
қолмайди. Биринчи қавати эса тановул вақтида қўлдан тўкил-
ган гуруч доналари ва мой томчилари дастурхонга туши-
шининг олдини олади. Ичига ўймакорлар
томонидан ўйиб ёзилган эски ёзув-
лар йиллар давомида ўчиб кет-
ган бўлсада, лаган яхши
сақланган.



Atmosfera havosi tarkibini o'rganish maqsadida tuzilgan maxsus ischmi guruh **BEKOBOD tumanida** bo'ldi. Guruh a'zolari hududlarda atmosferaga chiqarilayotgan tutun, chang va zaharli gazlar miqdorini kamaytirish borasidagi ishlar bilan tanishib, tashkilot hamda ijtimoiy soha obyektlari rahbarlariga tegishli tavsiylar berishdi.



— Nima deyapti?
– Bekobod, Nurafshon va Zangiotada chiqindi xizmati narxi osharmish, deyapti...

“УЛАР ТОНГНИ ГАЗЕТА ЎҚИШ БИЛАН ҚАРШИ ОЛИШАДИ...”

О, БУ НА ЁЛҒОН БҮЛДИ?!

“Тошкент ҳақиқати” газетасининг 2025 йил 8 февраль сониди “О, БУ НА ЁЛҒОН БҮЛДИ?!” сарлавҳали мақола-ни ўқиб, ўз мулоҳазаларимни ёзишга қарор қилдим...

Акс-садо

Бугунги кунда ҳар қандай акс-оборот тейкор интернет орқали етказиб берилмаётган бир пайтда “Босма нашрларнинг даври ўтди, энди улар бизга керакми?” қабилидаги баҳс-мунозараларга қўч дуч келяпти. Мен шу мамлакатларнинг ёш фуқароси, хусусан, не-не улуғ қалам-кашларимиз сабоқ олган журналистика факультетининг талабаси сифатида айт-



“Тошкент ҳақиқати” газетасининг 2025 йил 8 февраль
сонида “О, БУ НА ЁЛҒОН БЎЛДИ?!” сарлавҳали мақола-
ни ўқиб, ўз мулоҳазаларимни ёзишга қарор қилдим...

моқчиманки, бундай баҳс-нинг ўзи ноўрин. Миллий журналистикамизнинг юзи бўлган газета-журналлар биз учун, албатта, керак. Босма нашрлар журналисти-каси ҳисобланади. Яхшиямки, биринчи курсдан бошлаб ш учун бизни таҳририятларга

йўналиштирилган экан. Бу ерда газета-журналлар тайёрлаш жараёнларини кўриб, шу нарсага амин бўлдимки, тажрибали мутахассислардан сабоқ олган кадр кейинчалик журналистиканинг исталган қатламида қийналмасдан ишлаш олади.

Milliy libos – millat ko'zgusidir

O'zbek milliy liboslarida xalqimizning tarixi, qadimiy urf-odat va an'analari, didi, estetik qarashlari mujassam. Hozirgi kunda milliy liboslar jozibasini yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Milliylikni targ'ib qilish, milliy madaniyatni asrab-avaylash, xalqimizning boy merosini yosh avlodga yetkazish, aholining madaniy saviyasini oshirish, shuningdek, hayotimizda milliy an'analarning o'rnini mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar

viloyatimiz bo'ylab ham keng quloqch bo'ydi. Barcha tuman va shaharlarda milliylikni targ'ib qiluvchi tadbirlar, chellenjlar bo'lib o'tmoqda.

Bu haqda xotin-qizlarimizning fikri bilan qiziqdik.

▼ Qadriyatlarimiz

Nurjahon NIYOZOVA,
Toshkent tumanidagi "Oydin hayot" mahallasi xotin-qizlar faoli:

– Azaldan insonning kiyinishi, muomala madaniyati, odobi jamiyatda uning qanday mavqega ega ekanligini belgilovchi muhim jihat bo'lgan. "Ommaviy madaniyat" tahdidi kuchayib borayotgan bugungi kunda umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligiga e'tibor qaratish muhimdir. Ayniqsa, milliy madaniyatimizning o'ziga xos ko'rinishlari yoshlarimiz kiyayotgan liboslarda ham o'z aksini topishi lozim.

Aslida ham asrlar davomida sayqallanib kelayotgan milliy matolarimizdan tikilgan liboslar qizlarimiz husniga yanada husn qo'shadi. Bunday go'zal liboslar yoshlarimiz qalbida milliy qadriyat, an'ana va urf-odatlarimizga hurmat, boy va ko'hna merosimizdan faxrlanish tuyg'ularini mustahkamlaydi.

O'zimga kelsak, nafaqat bayramlarda, balki kundalik hayotda ham milliy liboslarni kiyishni yaxshi ko'raman. Kelinlarimdan ham shuni talab qilaman. Ba'zida teleko'rsatuvlarga chaqirish-ganda ham, albatta, milliy libosda boraman. Bu qizlarimizga o'mak bo'lsin deyman-da. E'tiborlisi, respublikamizdagi ziyoratgohlarga borganda yoshlarni kuzataman. Ular qo'l mehnati bilan tayyorlangan buyumlar: libos, do'ppi, taqinchoqlarni sotib olishayotganini ko'rib, xursand bo'laman.

Nargiz AMANOVA,
tikuvchi-dizayner, Zangiota tumani:

– Hozirda xorijliklarning o'zbek milliy liboslari va matolariga qiziqishi katta. Ularni liboslarimizning hech urfdan qolmaydigan bichimi, matolarimizdagi betakror bezak va ranglar jilosi o'ziga jalb qiladi. Ayniqsa, so'nggi yillarda dunyoga mashhur dizaynerlar milliy kashmalarimizdan o'z liboslar to'plamlarini yaratishda foydalanishayotganini ko'p kuzatamiz. Aminmanki, ular kelajakda ham o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Zero, xonatas, adras, beqasam, shoyi singari milliy matolarimiz ajdodlarimizning ko'p asrlar tarixini, milliy

qadriyatlarimizni ifoda etadi.

O'zim ham faqat milliy matolarimizdan kiyimlar tikaman. Mana 10 yildirki, Yevropa mamlakatlari-dan buyurtmalar keladi. Ishni adras matosidan kurtka va nimcha tikishdan boshlaganman. Internetga rasmlarini joylaganimda xaridorlarning o'zlari topib bog'lanishgan. Hozirda atlas nusxa baxmal matosidan sumkalar tikayman, xaridorlar kundan-kunga ko'paymoqda. Hattoki, bir buyurtmachim sumka tikish uchun maxsus tikuv mashinasi sovg'a qildi. Shu kunlarda Avstraliyaga katta buyurtmani jo'natish harakatidaman. Ortib qolgan mato qiyimlaridan quroq shaklida yostiqlar tikib, uyimni bezatib qo'yg'anman. Ulardagi ranglarni ko'rganda dam olaman, zavqlanaman, yangi irod namunalarini yaratish uchun ilhomlanaman. Kelgan mehmonlar ham havas qilib, buyurtma berishadi.


Parizoda XOLMUHAMEDOVA,
kashtachi, Yuqori Chirchiq tumani:

– O'zbek milliy matolari deganda ko'z o'ngimizda usta hunarmandlarning mashaqqatli mehnati, mahorati natijasida yaralgan atlas, adras, beqasam kabi bir-biridan chiroyli gazlamalar gavdalanadi. Hozirgi kunda o'zbek milliy liboslari nafaqat tarixiy meros sifatida

qadrlanayotgan, balki zamonaviy moda va dizayn uchun ham ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Men ham tikayotgan kashtalarimda milliy bezaklar, naqshlardan foydalanaman, ranglarim yorqinligiga ahamiyat beraman. So'zina, dasturxon, yostiqlar, oyoq kiyim va sumkalarni ham shu naqshlar bilan bezayman. Ko'rgazmalarda qatnashganimda yurtodoshlarimiz va xorijlik sayyohlar tikkan buyumlarimni qiziqish bilan xarid qilishlaridan faxrlanaman.

Yuqoridagi kabi dil so'zlarini ko'plab keltirish mumkin. Darhaqiqat, o'zligimizni unutmaslik, urf-odat va qadriyatlarimizga sodiq qolish bizning burchimizdir.

Nozima RASULOVA,
"Toshkent haqiqati" muxbiri
Jaloliddin ESONOV olgan suratlar



Muassis:
TOSHKENT VILOYATI HOKIMLIGI



"Toshkent haqiqati" va "Tashkentskaya pravda" gazetalarini tahrir hay'ati:

Zoyir MIRZAYEV
(tahrir hay'ati raisi)
Abdusamad NOSIROV
Ummat MIRZAQULOV
Hotamjon SAYDAHMEDOV
G'afurjon MUHAMEDOV
Sayyora FAYZIYEVA
Tohir ARIPOV
Mahmud TOIR
Uskenboy ATEMOV
Abdulla XURSANOV
Kumush EGAMBERDIYEVA
Behzod QOBULOV
Olimjon BEGALIYEV
Zarifa ERALIYEVA
Sergey MUTIN

Bosh muharrir:
G'ayrat SHERALIYEV

Qabulxona:
(55) 520-64-95

Bosh muharrir o'rinbosari:

(55) 520-04-10

Ma'sul kotib:

(55) 520-05-10

Bo'lim muharrirlari:

(55) 520-06-20, (55) 520-04-20

E'lonlar va hisob-kitob bo'limi:

(55) 520-21-20

e-mail: toshkenthqiqati@umail.uz

Ma'sul kotib:

Alloma AZIZOVA

Navbatchesi:

Zikrilla MUHAMMAD

Ekspeditor:

Behruz NURBOBOYEV

Bosishga topshirish vaqti – 21.00.

Bosishga topshirildi – 19.30.

Nashr ko'rsatkichi – 205.

Buyurtma G-235.

3 931 nusxada chop etildi.

Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida

bosildi. Qog'oz bichimi A-2.

Bahosi kelishilgan narxda.

Toshkent viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasida

2011-yil 12-yanvarda

03-001 raqami bilan

ro'yxatga olingan.

Manzil:

111500, Nurafshon shahri,

Toshkent yo'li ko'chasi, 90.

Toshkent shahridagi

ofisimiz: Bektemir tumani,

Ittifoq ko'chasi, 2.

ISSN 2010-9318.

Gazeta "Toshkent haqiqati"

tahririyati kompyuter markazida

terildi va Tohir Mahmudxo'jayev

tomonidan sahifalandi.

Haftaning

chorshanba va shanba

kunlari chiqadi.

«SHARQ» nashriyot-matbaa

aksiyadorlik kompaniyasi

bosmaxonasida bosildi.

Korxona manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

1 2 3 4 5 6

АЙФОН ТУТМАК ЗИКРИДА

("Қобуснома"га пародия)

Бир марта йиғи-сиғи билан айфонингни кўлга киритдим, энди бола билан ҳам, айфонинг билан ҳам видолаша-вер. Энг тинч йўли, ўзингга янги айфон сотиб олмоқ ва ундан болалар кўзидан панарокда фойдаланмоқ бўлиб қоладур.

Айфоннинг яна бир катта душмани бўлиб, унинг номи хотундур. Хотунларинг қанчалик кўп бўлса, вазият шу-нчалар чигаллашиб боргай. Бирламчи, улар айфонни ўзларига рақибга сифа-тида кўрурлар ва ҳаргиз уни йўқотмоқ ниятида юрурлар. Ухлаган пайтингда ҳам айфонингни ёстугинг тагига аши-риб ҳам қутулмоғайсан.

То уйланмағунингча бу икки таш-вишдан йироқдурсан, аммо барибир йигитликда айфонсиз юришга ҳамма ҳам қодир эмаслигидан, қўлинг кўп вақт айфонинг билан банд бўлмасдан қолмас. Бул жиҳатдин олиб қаралган-да, қариларнинг ибрат қилиб кўрса-тадурғон жойи ҳам қолмади – бир ўз-ларига иккитадан айфон олиб юрган ёшўлларилар тобора кўпаймоқда. Ёш йигитлар учун айфон тутиш бир мўнча осондур. Кексайганда қўл қалтираб,

тишдан парҳез қилмишлар ва оддий тугмачали "Нокия" тутмишлар.

Айфон харид қилиш, уни қандоқ тутиш ҳақида насиҳатларимни "Хо-тун олмоқ зикрида", "Дўст тутмоқ зикрида", "Ҳаммомга бормоқ зикри-да", "От сотиб олиш зикрида" каби боблардаги насиҳатларимга қўшим-ча деб билгайсан. Айфон сотиб ол-гудек бўлсанг, занҳор танимаган-билма-ган одамдан сотиб олма, бировнинг ўғирланган моли бўлуб чиқмоғи мум-кинди. Биров томонидан ишлатилиб, кейин дўконга қайта сотиш учун топ-ширилганларидан аввал-бошлаб ўрга-ниш учун сотиб олсанг бўлади. Айфон тутишни яхшилаб ўрганиб олғонингдан сўнг, жилт-жангисини сотиб ол. Йил-да айфонингни янгилайвермағил-ки, бу кибр-хаво белгисидур. Янги сотиб олғон тақдирингда ҳам, устига эскироқ жандапўш тақиб юр – кўз тегишдан сақлангайсан.

Агар йигит киши ёшлиқда айфон тутса узрду, ҳар киши кўрса маъзур тутгай ва айтурким, йигитду, айби йўқду, лекин жад қилким, қарлик-да айфон тутмағил. Қарининг ҳеч узри

йўқду, агар авомлардин бўл-санг иш бир нав осондур, агар роҳиббарлардан бўлсанг, зинҳор андиша қил ва ҳеч бир айфонга кўнгли ботламаким, роҳиббарга қарликда ай-фонбозлик қилмоқ бағоят ножоизду.

Ҳикоят. Андоқким, бобом Шам-

▼ Шанба табассуми

дучор бўлдим: мен киби дубба-дурст ҳокимнинг ай-фонбозлик қилмоғи бағоят қабихдур. Мени раиятнинг ҳолидан огоҳ бўлмоқ, мамла-катни тараққий эттирмак учун ҳоким қилибдурлар. Агар мен бугун айфонга машғул бўлсам, фуқаронинг аҳволи била шуғулланишни тарк этсам, халқнинг маломатидин на ян-лиғ қутулурман? Буни ўзинг ҳам тутмағил, бирор гадога эҳсон қилгил ва хазинадан бу номақбул ишингга сарф-лаган ақчаларни жойига қў-йиб қўйгил!..

Эй фарзанд, ривоятдан са-боқ ол ва сен ҳам айфонбозлик қилмоқдин ўзингни тийгил. Тия ол-маган тақдирингда ҳам, бирор жойга меҳмонга борар бўлсанг, айфо-нингни уйда қолдир. Уйда қолди-ришга кўнглурд бардош берма-са, уни энг чуқур чўнтагинга тиқиб ўтир. Бегоналарнинг қошида ҳаргиз айфонингни қўлингга олавермағил, уни қўлингга уйнаб, қўзинг-ни тиқиб, қўлингга тутганча пичир-пичир-лашавермағил. Одам-лар айфонингмас, сенинг ҳолатингга қарагайлар, бир-бир-ларига қош қоққанча устингдан қулгайлар. Бошқалар ҳам мен-дай айфонларини уйнаб ўтирарлар-ку, демағилким, ҳеч ким-га уз айби айб бўлуб кўринмағай, вал-лоҳи аълам, бис-савоб.

Оллоёр КАЙКОВУСИЙ

